



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI




SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2025-yilning yanvar-fevral
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5 764,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,1 % ni tashkil etdi.

Yanvar-fevral
mlrd so'm



Yanvar-fevral
FHI, %






■ mlrd so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (3 621,3 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (2 759,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2025-yil yanvar-fevral oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 5 573,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,7 % ni, tashkil etdi.



2025-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda jami Sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (37,1 %), Jomboy tumani (9,2 %), Urgut tumani (6,9 %), hamda Samarqand (5,8 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (115,1 %), Kattaqo'rg'on tumanida (108,6 %) hamda Oqdaryo tumanida (125,7 %) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2025-yil yanvar-fevral oylari)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan sanoatda 5,1 % ga, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 18,4 % ga, o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 11,4 % ga hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 15,2 % ga pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 23,4 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,9 % ni (2024-yilning yanvar-fevral oylarida 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali 9,0 % (13,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 17,2 % (19,1 %) va quyi texnologiyali 68,2 % (63,6 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % (2024-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,5 % (2024-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 23,5 % (2024-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 41,7 % (2024-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	10,9	13,0	2,1
Paxta tolasi, ming t.	12,0	8,9	- 3,1
Tozalangan paxta yog'i ming tonna.	8,5	11,6	3,1
Chaqiq tosh ming t.	67,4	15,3	-52,1
Aroq – ming litr 100 % spirt	22,9	23,7	0,8
Tamaki – mln dona	1 566,9	1 286,9	-280
Pivo – ming litr	1770,0	2003,1	233,1

2025-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda tozalangan paxta yog'i mahsulotlari 11,6 ming tonna (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 36,5 % ga ko'p) hamda 67,4 ming tonna chaqiq tosh (33,0 % kam) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2025-yil yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 410 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 12,0 % ga kamaygan.



2025-yil

410 dona

2025-yil

88,0 %

2024-yil

466 dona

2024-yil

133,1 %

2023-yil


350 dona

2023-yil

85,8 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2025-yil yanvar-fevral oylarida 46 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,6 % ga kamaygan.



2025-yil

46 dona

2025-yil

75,4 %

2024-yil

61 dona

2024-yil

53,5 %

2023-yil


114 dona

2023-yil

167,6 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 11,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 107,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,5 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 88,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 547,0 mlrd so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 5,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 129,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 4,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa, 112,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 279,7 mlrd so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-fevral oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 92,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 32,4 %, fizik hajm indeksi esa, 107,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 869,3 mlrd so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 72,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 122,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 53,8 mlrd so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2024-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 22,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,6 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 106,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 186,0 mlrd so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 86,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 %, fizik hajm indeksi 99,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 133,2 mlrd so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 134,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 90,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 43,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 108,4 % ni, tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 %, fizik hajm indeksi 153,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 64,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 128,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 125,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi 97,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 122,2 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi 110,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 123,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 133,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 101,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 95,5 mlrd so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 80,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,7 %, fizik hajm indeksi 86,1 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 384,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 121,6 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.


2025-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 118,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	28,5	27,7	-0,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 46,0 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	10 706,7	11 347,7	641
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	18 961,3	22 889,7	3 928,4
Plastmassa chiqindilari, tonna	372,3	391,1	18,8


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2025-yil 1-mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 816 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 046 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 21,7 %) Samarqand shahriga, 694 tasi (14,4 %) Urgut tumaniga, 535 tasi (11,1 %) Samarqand tumaniga, 384 tasi (7,9 %) Pastdarg'om tumaniga va 253 tasi (5,3 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

104 ta

2025-yil yanvar-fevral

164 ta

2024-yil yanvar-fevral

211 ta

2023-yil yanvar-fevral



Jami faoliyat yuritayotgan (1-mart holatiga)

4 816 ta


2025-yil

5 861 ta

2024-yil

6 884 ta


2023-yil





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 571,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,6 % ni tashkil etdi.

Yanvar-fevral
mlrd so'm



Yanvar-fevral
ulushi, % da



■ mlrd so'm ■ ulushi, %